

BUYUK XIVA XONI MUHAMMAD RAXIMXON I

Namangan davlat universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti talabasi

Muhammadiyev Bilol Ismoil o'g'li

E-mail: bilolmuhammadiyev@5gimail.com

Tel: +998957707796

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xivada hukmdorlik qilgan Qo'ng'iro't sulolasining mashhur vakillaridan biri Muhammad Rahimxon I ning tug'ilishi, hokimiyatga kelishi, davlatni boshqaruvi, o'tkazgan islohotlari va mamlakat hududini kengaytirish yo'lidagi kurashlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Muhammad Rahimxon I, Eltuzarxon, Oliy Kengash, Muhammadmurodbek, Qilich Niyozboy kanali, qoraqalpoqlar, Chorjo'y, Muhammad Yusuf, Xiva xonlari taxti.

Muhammad Rahimxon I hukmronligi davri Xiva qo'ng'iro'tlarining eng yaxshi davrlaridan biri, shubhasiz. Buxoro amirligidan uchralgan mag'lubiyatdan keyin taxtga kelgan Rahimxon I mamlakatni birlashtirishga kirishdi. Mamlakat sarhadlarini mustahkamladi, Buxoro, qoraqalpoqlar va turkmanlarga qarshi kurashdi. Mamlakat boshqaruvi sohasida ham islohotlar o'tkazdi. Kengashlar tashkil etdi.

Muhammad Rahimxon ibn Avaz Inoq 1776-yilda Xiva shahrida tug'ilgan. Yoshlik yillaridan yaxshi ta'lim oldi. Harbiy sohada ham anchagina mohir edi. Muhammad Rahimxon baland bo'yli, salobatli (uni kuchli ot ham ikki soatdan ortiq ko'tarib tura olmagan), uning ko'zlari kichkina, nigohi o'tkir, kichkina soqoli sarg'ish rangda bo'lib, aqli chaqqon, kelajakni oldindan ko'ra olish qobiliyatiga ega edi. [4. – B. 51]. O'ttiz yoshga kirganda buxoroliklar bilan bo'lgan 1806-yilgi Amudaryo bo'yidagi jangda o'z askarlari bilan orqaga chekinib, daryo qirg'og'iga kelib qoldi. Bu urush daryoda kemalar ishtirokida ham bo'lgan. Muhammad Rahimxon I mingan kemaga suv tosha boshlaganda sovutlarini yechib, daryoga tushib qirg'oq tomon suzib ketdi. Qirg'oqqa chiqqandan keyin akasi Eltuzarning kemasi cho'kib ketib, o'zi esa vafot etganini bildi va poytaxt Xiva tomon ketdi. Xivada otasidan meros qolgan davlat devonxonasida hukumat uzugini barmog'iga taqdi. [3. – B. 132].

Muhammad Rahimxon I hukmronligi davri Xiva xonligi tarixida o'ta murakkab davr edi. Ma'lumki, Buxoro bilan bo'lgan urushda Xiva qo'shinlarining mag'lubiyatga uchrashi xonlikning harbiy-siyosiy mavqeyini pasaytirib yuborgan edi. Bundan tashqari, mahalliy hokimlar, zodagonlarning mustaqil bo'lib chiqish harakati kuchayib, ular markaziy hokimiyatni tan olmay qo'ygan edilar. Shu bilan birga mulkdorlarning jabr-zulmiga qarshi xalq noroziligi ham avj olgan edi. [2. – B. 167]. Muhammad

Rahimxon I rejalar asosida Muhammadmurodbekka devonxona kirim-chiqim hisobotlarini topshirib, Vaziri a'zam Muhammad Yusuf mehtarni unga sherik qildi. Ularning vazifasi xonlik va aholi farovonligi yo'lida yaxshi rasm va qoidalarni tuzib chiqish edi. Oradan ko'p o'tmay, 1806-yil 28-iyul kuni akasi tomonidan taxtdan tushirilgan Chingiziy Abdulg'oziyxon V xon, 1-avgustda Said Yusuf Xojani naqib, Tog'aybekni otaliq va Shermuhammad Munisni mirob qilib tayinladi. [3. – B. 133]

Muhammad Rahimxon I bobosi Muhammad Amin Inoq boshlagan Xiva xonligidagi xalqlarni birlashtirish ishini muvaffaqiyatli amalga oshirdi. Muhammad Rahimxon I davrida mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirish va savdo-sotiq ishlarini jonlantirish maqsadida 1809-yildan Ko'hna Arkda zarbxonaga asos solinib, Rahimxon nomidan yangi oltin va kumush tangalar zarb qilina boshlandi. Oltin tangalarning qiymati yuqori bo'lib, uning bir tomonida Qur'ondan oyat hamda zarb qilingan sanasi yozilgan. Ikkinchi tomonida esa Muhammad Rahimxon nomi bitilgan. Muhammad Rahimxon I farmoni bilan o'zi boshchiligidagi 11 kishidan iborat Oliy Kengash tuzildi. Kengashning birinchi a'zosi xonning ishonchli kishilaridan biri bo'lgan Muhammad Yusuf mehtar bo'lib, 50 yoshlar atrofida, tabiatan qattiqqo'l va xon oldida tobe kishi edi. Kengashda to'rt o'zbek avlodlarining boshliqlari ham qatnashgan. Kengash juma kuni xon saroyining ko'rinish xonasida bo'lgan. Dastlab ovqatlanib, keyin muhokama boshlangan. Kengash a'zolari kengashdan haq olishmagan. Muhammad Rahimxon I davrida ichimlik qat'iyan taqiqlandi. Ichgan va bang chekkan kishining og'zi qulog'igacha kesilgan. Muhammad Rahimxon I davrida ko'plab madrasa va masjidlar qurildi. Pahlavon Mahmud maqbarasi qayta ta'mirlandi. Bu maqbarada Muhammad Rahimxon I qabri ham joylashgan. [4. – B. 52]

Muhammad Rahimxon I tomonidan amalga oshirilgan islohotlardan yana biri – soliq tizimini tartibga solish bo'ldi. Avvalari Xiva xonligida fuqarolardan mahsulot hisobida soliq undirib, uning miqdori soliq yig'uvchilar xohishi bilan muttasil o'zgarib turgan. Yig'ilgan soliqlarning ko'p qismi mahalliy amaldorlar qo'lida qolib, davlat xazinasiga kam miqdorda daromad tushgan. Muhammad Rahimxon I mahsulot to'lovi – xirojni pul solig'i (solg'it) bilan almashtirdi. Soliq to'plash ishi markaziy hukumat qo'lida o'tdi. Xazinaga fuqarolardan tushadigan daromadlar va sarf-xarajatlar maxsus daftarda qayd etilib, xonning nazorati ostida bo'ldi. Endilikda soliqning miqdori mulkdorlarga qarashli ekin maydonlarining hajmi hamda olingan hosilga qarab belgilanadigan bo'ldi. [2. – B. 170]. Muhammad Rahimxon I harbiy islohot o'tkazib, turkman va o'zbeklardan iborat muntazam qo'shin tuzdi. "Xon navkarlari" deb nomlangan qo'shinning umumiy soni 2 ming kishidan iborat bo'lgan.

Muhammad Rahimxon I mamlakat sarhadlarini kengaytirish hamda bo'ysinmas qabilalarni itoat ettirish maqsadida qator harbiy harakatlar olib bordi. Juda qiyinchiliklar bilan bo'lsa-da, Orol qo'ng'irotlari tobe ettirildi. 1812–1813-yillarda Sirdaryo bo'yidagi qozoq va qoraqalpoq ovullariga ketma-ket qo'shin yuborib, ularni

ham Xiva xonligiga bo'ysintirdi. Shundan keyin qozoqlar ancha vaqtgacha Xivaga tobe bo'lib qoldi va har yili boj to'lab turar edi. Mamlakat shimolida tartib o'rnatgan Muhammad Rahimxon I mamlakat hududlarini Janubiy Turkmaniston va Xuroson viloyatlari hisobiga kengaytirish harakatida bo'ldi. Bu hududlarga qo'shin tortib, bir nechta turkman qabilalarini Xorazmga ko'chirib kelish niyatida bo'ldi. Yurishlar Buxoro amirligi bilan aloqalarni yomonlashtirib yubordi. Buxoro amirlari xivaliklarning Tajan va Murg'obga kelishini yoqtirmagan. Chunki bu hududlarda ular o'z siyosatlarini yuritishar edi. 1817-yilda Chorjo'y qal'asi yaqinidagi birinchi to'qnashuvda Xiva qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Shunday bo'lsa-da, kurash to'xtab qolmadi. Buxoro amirligi bilan sovuq munosabatlar saqlanib qolindi. Muhammad Rahimxon I Buxoro hududlariga 1820, 1823, 1824-yillarda talonchilik va harbiy harakatlarni amalga oshirdi. [1. – B. 342]

Muhammad Rahimxon I poytaxtni mustahkamlash va sug'oriladigan yerlarni kengaytirishga kirishdi. Bu turkman qabilalarini markazga ko'chirish, shuningdek, harbiy amaldorlarni mukofotlash uchun zarur edi. Yirik sug'orish inshootlaridan biri 1815-yilda Qilich Niyozboy kanali qurildi. Qilich Niyozboy kanalidan chap tomonda Besh yo'li, o'ng tomonda Gurlan, Nukus, Uyg'ur, Polvonbek kanallari ajralib chiqqan. Qilich Niyozboy kanali Daryoliqning o'ng qirg'og'i bo'ylab ketgan qirg'oq yerlarini sug'orish uchun maxsus qurilgan edi. [5. – B. 227].

Muhammad Rahimxon I davrida uning buyrug'i bilan Xiva xonlari uchun chiroyli taxt tuzalgan. Taxt yog'ochdan ishlanib, sirti esa yupqa kumush bilan qoplangan va islimiy naqshlar bilan bezak berilgan. Taxtni tasvirlagan guvohlar uning O'rta Osiyodagi barcha gul va o'simliklarni o'zida namoyon etuvchi juda chiroyli naqshlar bilan bezatilgan, deyishgan. Bu taxt Xiva ustalarining mahorat cho'qqisi, ya'ni metallga gul solish san'atining betakror mahsulidir. Taxtning orqa suyanchig'i tepasi madoxil naqshi shaklida ishlangan va unga arab alifbosida, nasta'liq xati yozuvida shunday so'zlar bitilgan: "Muhammad Rahim Xorazmshohiy zamoni ming ikki yuz o'ttiz birda. Xiva viloyatidan Yusuf Muhammad kaminani tarix (loyiha) bitgani". Bunda ko'rsatilgan hijriy 1231-yil 1816-yilga to'g'ri keladi. Madoxil – uchbarg, uning ramziy ma'nosi dunyoning abadiyligi, uch bargi yaxshi g'oya, yaxshi fikr, yaxshi ishni bildiradi. Jamiyatning uch tabaqasi: olimlar, dehqonlar va navkarlarni anglatgan. [4. – B. 53]

Muhammad Rahimxon I 1825-yilda vafot etdi. Tiriklik davrida belgilab qo'yilgan Pahlavon Mahmud maqbarasida dafn etiladi. Undan keyin taxtga o'g'li Olloqulixon keldi va u 1825–1842-yillarda davlatni boshqardi.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Rahimxon I Xiva xonligini yangi taraqqiyotga olib chiqdi. Jumladan, mamlakatni birlashtirish ishlari nihoyasiga yetkazildi. Aholining yashash sharoitlarini yaxshilash maqsadida turli islohotlar amalga oshirilib, soliq va majburiyatlarni tartibga soldi. Muhammad Rahimxon I

hukmronligi davrigacha Xiva xonligi hududida Buxoro amirlari chiqargan tangalar muomalada bo'lgan. Muhammad Rahimxon esa o'z nomidan Xivada oltin va kumushdan tangalar zarb qildirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Б.Эшов, Узбекистон давлатчилиги ва бошқарув тарихи. Тошкент - узбекистон тарихи кафедраси. 2012. 456.
2. М.Матнийозов. Я. Олламов. Хоразим давлатчилиги тарихи. Урганч- 2009.293 б.
3. К., Холиков. К. Худойберганов. Хоразим кунгирот иноклари шажараси: Тошкент – Академикнашр. 2021.299 б.
4. К. Худойберганов. Хива хонлари шажараси. Хива 1996. 73б.
5. Я.Г. Гуломов. Хоразмнинг сугорилиш тарихи. Кадимги замондан хозиргача- Тошкент: Узбекистон ССР фанлар академияси нашриёти. 1959.326б.